

OG‘ZAKI TARJIMANING MOHIYATI, TURLARI VA XUSUSIYATLARI**Soatova Shahribonu Baxtiyor qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining

Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishining talabasi.

Gmail: soatovashahribonu@gmail.com **Telefon raqam:** +998944220719**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20562319>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada og‘zaki tarjimaning mohiyati, asosiy turlari va lingvistik-kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sinxron, ketma-ket va pichirlab tarjima turlari nazariy jihatdan yoritilib, o‘rganilib, ularning amaliy qo‘llanish sohalari ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, og‘zaki tarjima jarayonida tarjimon kompetensiyasi, tezkor fikrlash va xotira qobiliyatining ahamiyati asoslab berildi. Tahlil natijalari og‘zaki tarjimaning zamonaviy xalqaro muloqotdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki tarjima, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, pichirlab tarjima, tarjimon kompetensiyasi, kommunikatsiya, tarjimashunoslik.

Abstract. This article analyzes the essence, types, and linguistic-communicative features of interpreting. The study examines simultaneous, consecutive, and whispered interpreting and their practical application. It also highlights the importance of interpreter competence, quick thinking, and memory skills. The results demonstrate the role of interpreting in modern international communication.

Keywords: oral interpretation, simultaneous interpretation, consecutive interpretation, whispered interpretation (chuchotage), interpreter competence, communication, translation studies.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida turli millatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bunday sharoitda og‘zaki tarjima xalqaro muloqotni ta‘minlovchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Og‘zaki tarjima til bilmaydigan tomonlar o‘rtasida tezkor va samarali aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi.

Og‘zaki tarjima yozma tarjimadan farqli ravishda real vaqt rejimida amalga oshiriladi va tarjimondan yuqori darajadagi tezkor fikrlash, diqqat va til kompetensiyasini talab qiladi. Shu sababli ushbu soha tarjimashunoslikda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi og‘zaki tarjimaning mohiyati, turlari va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Vazifalar: og‘zaki tarjima tushunchasini yoritish; uning asosiy turlarini tavsiflash; sinxron, ketma-ket va pichirlab tarjimini tahlil qilish; tarjimon kompetensiyasining ahamiyatini ko‘rsatish; zamonaviy kommunikatsiyadagi o‘rnini baholash dan iborat.

Og‘zaki tarjima — bu bir tilda og‘zaki ifodalangan nutqni boshqa tilga og‘zaki shaklda yetkazish jarayonidir. Bu jarayonda tarjimon matnni qayta tahrirlash imkoniga ega bo‘lmaydi, shu sababli u tezkor qaror qabul qilishi kerak. Og‘zaki tarjimaning xususiyatlari : tezkorlik va aniqlik, kuchli xotira, lingvistik kompetensiya va kommunikativ malaka, madaniyatlararo bilimdan iborat.

Masalan:

Asl nutq: “It’s raining heavily.” Tarjima: “Juda kuchli yomg‘ir yog‘moqda.” Bu tarjimada mazmun to‘liq saqlangan holda adekvat tarjima amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, G. Salomov tarjimoni tillararo muloqot vositasi sifatida ta'riflaydi.

Shuningdek, V.N. Komissarov tarjima jarayonini murakkab kommunikativ faoliyat sifatida izohlaydi. Bundan tashqari, og'zaki tarjimada mazmuni to'liq va aniq yetkazish asosiy talab hisoblanadi.

Sinxron tarjima— bu nutq bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Tarjimon eshitgan gapni darhol boshqa tilga o'giradi va qanday amalga oshadi? Ma'ruzachi gapiradi va tarjimon esa uni bir-ikki soniya kechikish bilan darhol tarjima qiladi va ko'pincha tarjimon naushnik va mikrofon orqali ishlaydi va bu tarjimaning xususiyatlari: Juda tez va uzluksiz tarjima, tarjimon bir vaqtning o'zida: tinglaydi, tushunadi, tarjima qiladi va juda kuchli diqqat, tez fikrlash va stressga chidamlilik talab qiladi. Bu xalqaro konferensiyalar, BMT, Yevropa Ittifoqi yig'ilishlari va televideniye, katta forumlarda ishlatiladi. Misol uchun, sinxron tarjimadagi holat: Xalqaro konferensiya bo'lyapti. Notiq gapiryapti, tarjimon esa darhol tarjima qilib boradi.

Asl nutq: "We must work together for peace." Tarjima (bir vaqtda): "Biz tinchlik uchun birgalikda ishlashimiz kerak." Notiq gapni tugatmasdan tarjimon tarjima qilishi kerak.

Ketma-ket tarjima — bu tarjima turi bo'lib, unda ma'ruzachi gapini bo'lib-bo'lib aytadi, tarjimon esa u gapni tinglab bo'lgach, keyin tarjima qilib beradi. Bu usulning ishlatilishi: ma'ruzachi 1–3 gap yoki bir kichik bo'lakni aytadi va tarjimon uni diqqat bilan tinglaydi va eslab qoladi (yoki yozib oladi), shundan keyin shu gapni boshqa tilda to'liq tarjima qiladi va bu tarjimaning xususiyatlari: tez emas, navbat bilan amalga oshadi va ko'pincha sud, muzokara, uchrashuv, rasmiy tadbirlarda ishlatiladi va tarjimon uchun kuchli xotira va eslatma (note-taking) ko'nikmasi kerak. Ketma-ket tarjimadagi holat: rasmiy uchrashuv bo'lmoqda va notiq bir necha gap aytadi, to'xtaydi, keyin tarjimon tarjima qiladi.

Notiq: "We are happy to visit your country. We hope to strengthen cooperation."

Tarjima: "Biz sizning mamlakatingizga tashrif buyurganimizdan xursandmiz.

Hamkorlikni mustahkamlashga umid qilamiz."

Notiq gapirib bo'lgach tarjima qilinadi.

Pichirlab tarjimada tarjimon past ovozda tinglovchiga tarjima qilib boradi. Odatda 1–2 kishi uchun qo'llanadi. Juda ko'p hollarda konferensiya, uchrashuv yoki rasmiy tadbirlarda ishlatiladi va texnik jihozlar (mikrofon, naushnik) odatda kerak bo'lmaydi va bu juda tez fikrlash va yaxshi xotirani talab qiladi.

Bu usul tinglovchi chet tilini umuman bilmaganda, faqat 1–2 kishiga tarjima kerak bo'lganda va rasmiy yig'ilishlarda yonma-yon o'tirib tarjima qilish kerak bo'lsa ishlatiladi.

Pichirlab tarjimadagi holat: Bir mehmon yonida faqat bitta odam bor va u tarjimoni past ovozda eshitadi.

Notiq: "The meeting will start at 10 o'clock." Tarjimon pichirlab: "Yig'ilish soat 10 da boshlanadi." Faqat 1–2 kishiga past ovozda tarjima qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, og'zaki tarjima zamonaviy xalqaro muloqotda muhim o'rin tutadigan murakkab kommunikativ jarayon hisoblanadi. U turli tillarda so'zlashuvchi insonlar o'rtasida tezkor va samarali aloqa o'rnatishga xizmat qiladi. Tadqiqotda og'zaki tarjimaning sinxron, ketma-ket va pichirlab tarjima turlari ko'rib chiqildi va ularning har biri o'ziga xos vazifalarga ega ekani aniqlandi.

Shuningdek, og'zaki tarjima tarjimondan yuqori tezkor fikrlash, kuchli xotira va yetarli lingvistik kompetensiyani talab etishi asoslab berildi. Umuman olganda, og'zaki tarjima global kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo'lib, uning ahamiyati kelajakda yanada ortib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salomov G ‘. Tarjima nazariyasiga kirish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1978. — 180 b.
2. Komissarov V.N. Teoriya perevoda. — Moskva, 1990. — 250 s.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. — London, 1988. — 292 p.
4. Nida E. Language and Translation. — Shanghai, 1993. — 220 p.
5. Pöchhacker F. Introducing Interpreting Studies. — London: Routledge, 2016. — 280 p.
6. Gile D. Interpreter Training. — Amsterdam, 2009. — 200 p.